



SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)


Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra **3 962,5 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **14,8 ming kishiga** yoki **0,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 463,5 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,9 %**), qishloq aholisi soni **2 499,0 ming kishi (63,1 %)**ni tashkil etdi.



Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qushib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi




Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km. ga kishi)




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-mart, ming kishi)

Doimiy aholi soni, (2021-yil 1- aprel holatiga)	2020 -y	2021 -y
Tug'ilganlar	20,4	21,4
Vafot etganlar	3,8	4,3
Aholining tabiiy o'sishi	16,6	17,1
Kelganlar	1,8	3,0
Ketganlar	3,4	5,3
Migratsiya sal'dosi	-1,6	-2,3
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	5,4	6,8
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	0,8	0,9
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	21,1	21,9
o'lim	3,9	4,4
aholining tabiiy o'sishi	17,2	17,5
tuzilgan nikohlar	5,6	6,9
nikohdan ajralishlar	0,9	0,9


2021- yil yanvar-mart oylarida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni. kishi




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1-aprel holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,0 %ni tashkil etdi. Urgut 13,2 %ni, Pastdarg'om 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 %ni tashkil etgan.




Tug'ilganlar soni



Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 2 1374 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,9 promilleni tashkil etib, (2020- yilning yanvar-mart oylarida 21,1 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti 0,8 promillega ko'paygan.



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart)




Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.






Oylar kesimida vafot etganlar soni




Vafot etganlar. 2021 yilning yanvar-mart oylarida 4 265 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan (2020 yilning yanvar-mart oylarida 3,9 promille bo'lgan) o'lim koeffitsiyenti 0,5 promillega ko'paygan.

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti: (2021 –yil, yanvar-mart)




2021- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining 64,3 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,1 % i – o'simtalardan, 5,1 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 % i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,7 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.






Tuzilgan nikohlar soni (ming birlik)




Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)



Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille), Payariq (8,7), Jomboy (8,6) Bulung'ur (8,2) va Urgut (7,6) tumanlarida kuzatildi.


Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Qo'shrabot (5,2), Samarqand shahar (5,8), Samarqand (6,0) va Nurobod (6,3) tumanlarida kuzatildi.



Nikoh. 2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 6 715 kishining nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,9 promilleni tashkil etdi.



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

(2021 –yil, yanvar-mart)






Nikohdan ajrashganlar soni (ming birlik)




Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Samarqand shahar (**1,5**), Samarqand (**1,5**), Kattaqo'rg'on shahar (**1,3**), Payariq (**1,1**) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Nurobod (**0,5**), Urgut (**0,6**), Qo'shrabot (**0,7**) va Oqdaryo (**0,7**) tumanlarida kuzatildi.



Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 9 21 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-mart)



Migratsiya. 2021- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 002 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5 329 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 2 327 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 1 557 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (*kishi*)

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1 797	3 002
Ko'chib ketganlar	3 354	5 329
Migratsiya sa'ldosi	-1 557	-2 327

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Samarqand sh (minus 1124 kishi), Urgut (minus 435 kishi), Qo'shrabot (minus 333 kishi), Paxtachi (minus 322 kishi), Pasterg'om (minus 317 kishi), Ishtixon (minus 286 kishi) hamda Kattaqo'rg'on (minus 280 kishi) tumanlarida kuzatildi.



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(66) 235-72-35